



ABDULLA QODIRIY-O'ZBEK ROMANCHILIK MAKTABINING ASOSCHISI

Rayimqulov Diyorbek Axror o'g'li

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti Mexanika muhandisligi
fakulteti “Metallar texnologiyasi”
yo'nalishi 3- bosqich talabasi

Annotatsiya: Abdulla Qodiriy o'z davrining ilg'or bir ziyolisi sifatida Vatan va millat taqdiri xususida qayg'urdi. Zamon to'palonlari adib qalbini iztirobga soldi. “O'tkan kunlar” romani orqali xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi, “tariximizning eng kir, qora kunlari”- yurtni mustamlaka balosiga yo'liqtirgan keyingi noahil “xon zamonlari”dan so'z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo'ldi. **Kalit so'zlar:** Abdulla Qodiriy, Otabek, O'tkan kunlar, Hasanali, Zaynab.

Ulkan iste'dod egasi, XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyondasi, o'zbek romanchiligining asoschisi, 20 yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi, publitsist, hajv ustasi, tilshunos va tarjimon Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprel kuni Toshkent shahrining Eskijo'va mahallasida, bog'bon oilasida dunyoga kelgan.

XX asr avvali ijtimoiy hayotidagi tang holatlar yosh Abdullaning bolaligiga soya tashladi. U bolaligidanoq turmush tashvishlari ichiga sho'g'idi. Shu ma'noda adib o'zi haqida shunday eslaydi: «Har holda bemavridroq bo'lsa kerak, kambag'al, bog'bonlik bilan kun kechirguchi bir oilada tug'ilg'onman», deydi u o'z tarjimai holida, —Yoshim to'qqiz-o'nlariga borg'ondan so'ng meni maktabga yubordilar. Maktabda ikki, uch yil chamasi eski usulda o'qib, keyingi vaqtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajhidan o'n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka berdilar. Xo'jayinim o'zi savdogar kishi bo'lib, o'rischa yozuv-chizuv biladurg'on odamga muhtoj edi. Shu



ta’ma bo’lsa kerak, meni o’ris maktabga yubordi. . Shu miyonalardan bozor vositasi bilan tatarlardan chiqadig’on gazetalarni o’qib, dunyoda gazeta degan gap borlig’iga imon keltirdim. 1913 yilda o’zbekcha «Sadoi Turkiston», «Samarqand», «Oina» gazetolari chiqqa boshlag’och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg’ondi. 1913 yilda chiqqan «Padarkush» ta’sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborg’animni o’zim ham payqamay qoldim (1915 yilda). Yana shu yilda teatrlarda chiqib turg’on hikoyalarga taqlidan «Juvonboz» otliq hikoyachani yozib noshir topilmag’onidan, o’zim nashr qilib yubordim. 1918 yil boshlarida eski shahar oziq komiteti boylar qo’lidan olinib, komitetning raislig’iga o’rtoq Sultonxo’ja Qosimxo’jaev tayin qiling’on edi va men mazkur komitetning o’zbekcha sarkotibligiga kirdim. «Mushtum» jurnalining muannisi va tahririya a’zosi bo’lib, to 1924 yilgacha mehnatkashlar manfaatiga xolis ishlab keldim. Shu o’tgan yetti yil orasida Sho’rolar hukumati va firqadan bir og’iz tanbeh olmadim. Xulosa — boshqalarning xizmati daftar bilan sobit bo’lsa, mening xizmatlarim matbuot bilan ravshandir. Ishchi-dehqonlar yozg’on asarlarimni suyunib o’qiydilar va meni yozuvchilar qatoriga kirgazdilar va meni hamon o’qirlar va unutmaslar.»

Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyati 1913—1914 yillarda boshlangan bo’lib, dastlab «Sadoi Turkiston», gazetasida “ Yangi masjid va maktab” sarlavhali xabar bosiladi. Bu adibning matbuotdagi birinchi chiqishi edi. Oradan ko’p o’tmay uning «Ahvolimiz», «Millatimga», «To’y» «Fikr aylag’il» (1914-1915) kabi she’rlari «Oina» jurnalida bosilib chiqqan edi. “Fikr aylag’il” she’rida oqil insonlarga murojaat qiladi.

Oqil, fikr aylagilki, na ishlayur ahli vatan,
Qaysi fosiq, qaysi johil , qaysisi bo’ldi chapan?
deb kuyunadi.

Adib o’z millatini ma’rifatga chaqiradi, ma’rifatparvar shoir va adib sifatida maydonga chiqadi. «Baxtsiz kuyov» (1915) nomli fojeasi, «Juvonboz» (1915), «Uloqda» (1916) kabi hikoyalarida ham o’z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko’rish istagi sezilib turadi. 1924 yili Abdulla Qodiriy Moskvaga borib, Jurnalistlar institutida tahsil oldi. Moskvadan qaytib «Mushtum» jurnalida shtatsiz muxbir bo’lib ishlay boshladi.

Примечание [П1]:

Примечание [П2]:

Примечание [П3]:

Примечание [П4]:



Uning «Toshpo’lat tajang nima deydi?» va «Kalvak mahzumning xotira daftaridan» turkumidagi satirik hikoyalari ana shu jurnalda ilk bor bosilib bordi. Abdulla Qodiriy 1917-1918 yillardan boshlab «O’tgan kunlar» romani uchun material yig’ishga kirishdi. 1922 yilda birinchi o’zbek romanining dastlabki boblari «Inqilob» jurnalida chop etila boshlandi. 1925-1926 yillarda «O’tgan kunlar» uch bo’lim holida kitob» bo’lib nashr etildi. 1928 yil yozuvchining ikkinchi tarixiy romani «Mehrobdan chayon» nashrdan chiqdi. 1934 yilga kelib Abdulla Qodiriy qishloq xo’jaligi mavzuiga bag’ishlangan «Obid ketmon» qissasini yaratdi. Undan tashqari u tarjimon sifatida ham faoliyat olib boradi. U dastlab rus adabiyotida A. P. Chexovning « Buqalamun» hikoyasini, Gogolning «Uylanish», pyesasi va boshqa g’arb yozuvchilarining satirik hikoyalarini o’zbek tiliga tarjima qildi. Abdulla Qodiriy 1934 yilda bo’lib o’tgan Moskvadagi Butunittifoq Yozuvchilarining birinchi qurultoyida qatnashadi. 1935 yil Abdulla Qodiriy “ Yosh leninchi” gazetasining adabiy to’garagida yosh yozuvchilar bilan uchrashadi va ijodiy tajribasidan so’zlab beradi. Garchand adib go’zal asarlar yozib , o’z xalqining ma’naviy dunyosini bebaho asarlar bilan boyitgan bo’lsa ham, mustabid tuzum uning qadriga yetmadi . Qayta dushmanga chiqardi Abdulla Qodiriy 1937 yilning 31 dekabrda qamoqqa olindi. «Menga qo’yilgan ayblarni boshdan oyoq rad etaman. Haqiqat yo’lida hech qanday jazodan, qiynoqdan qo’rqmayman. Agar otmoqchi bo’lsalar, ko’kragimni kerib turaman.» deb mardona turadi Abdulla Qodiriy 1938 yil 4 oktyabrda Toshkentda xalq dushmani sifatida qatl etiladi.

Abdulla Qodiriy o’z davrining ilg’or bir ziyolisi sifatida Vatan va millat taqdiri xususida qayg’urdi. Zamon taloto’plari adib qalbini iztirobga soldi. “O’tkan kunlar” romani orqali xalqning milliy ongini uyg’otmoqchi, “tariximizning eng kir, qora kunlari”- yurtni mustamlaka balosiga yo’liqtirgan keyingi noahil “xon zamonlari”dan so’z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo’ldi

Abdulla Qodiriy qalamiga mansub O’tkan kunlar , ba’zi manbalarda O’tgan kunlar roman o’zbek adabiyotidagi birinchi roman 1920-yillar boshida yozilgan bo’lib, 1922-yil ilk bor „Inqilob“ jurnalida chop etilgan va 1926-yilda alohida kitob holida chiqarilgan.



Adibning badiiy soʻzida betakror joziba mujassam boʻlgani bois “Oʻtkan kunlar”ni necha bor oʻqisa ham, odam toʻymaydi, qayta mutolaaga ehtiyoj sezaveradi. Roman oʻquvchini zeriktirmaydi. Qayta oʻqish jarayonida asarning yangidan-yangi qirralari ochiladi. Bir oʻqilganda eʼtiborsiz oʻtilgan epizodlarga boshqa safar diqqat qaratiladi. Bu hol, tabiiyki, adibning obraz yaratish mahoratiga, inson qalbini chuqur anglashiga daxldordir. Zero, koʻrkam adabiyotdek sanʼat dunyosida badiiy soʻz poetik nutq muhim sanaladi: soʻz vositasida manzara, ruhiyat va obraz chiziladi. “Oʻtgan kunlar” romanidagi obrazlarning har biri oʻzicha bir olamki, ular hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Ularning hammasi ham yuksak darajada mahorat bilan yaratilgandir. Abdulla Qodiriyning “Oʻtgan kunlar” asari - oʻzbek romanchiligining birinchi choʻqqisidir. Abdulla Qodiriy asarlarida milliy ruh va folklor anʼanalari uygʻunlashib, ijodkorning oʻziga xos, betakror uslubini namoyon qiladi..

Umumun olganda, Abdulla Qodiriyning nafaqat “Oʻtkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlariyu, “Obid ketmon” qissasi, balki “Ahvolimiz”, “Toʻy”, “Millatimga”, “Fikr aylagil” kabi sheʼrlarida, “Juvonboz”, “Uloqda”, “Jinlar bazmi” kabi hikoyalarida, “Baxtsiz kuyov” dramalarida ham milliy ruh hukmronlik qiladi. Bugungi kunda ham “Oʻtkan kunlar” romani oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Milliy anʼana va qadriyatlar tobora oʻzgarayotgan XXI asr sharoitida bu asar oʻzbek xalqining oʻzligini unutmaslik, oʻtmishdan saboq olib, kelajakka oqilona qadam tashlash zarurligini eslatib turadi. Shuning uchun ham “Oʻtkan kunlar” – faqat bir tarixiy roman emas, balki milliy oʻzlikni anglash yoʻlida yozilgan abadiy badiiy durdona sifatida oʻqilishi lozim boʻlgan asardir.

Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romani milliy ruhni, tarixiy haqiqatni va xalq tafakkurini oʻzida mujassam etgan yirik badiiy asar sifatida oʻzbek adabiyotida alohida oʻrin tutadi. Ushbu roman orqali muallif millatning oʻtmishidan saboq chiqarishga, uning milliy qadriyatlarini anglashga va kelajak yoʻnalishini belgilashga undaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Qahhor. Asarlar. T.VI. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1970. 411-bet. 2. O‘.Nosirov. Ijodkorshaxs badiiy uslub,avtor obrazi. Toshkent: Fan, 1981. 109-110-betlar.
- B.Karim. Dunyo olimlari nigohi. Avulla Qodiriy va germanevtik tafakkur maqola 2016
3. A.Qodiriy. “O‘tgan kunlar” Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti,1974. 47-bet.
4. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi.Avtor nutqi va personaj nutqi. Toshkent:
5. Bashir. O‘zbek adabiyoti.- Qozon, 1929. B.15
6. Ismatulla X.Abdulla Qodiriy abadiyati. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1994-yil 14 oktabr
7. B.Karim. Dunyo olimlari nigohi. Avulla Qodiriy va germanevtik tafakkur maqola 2016